

O'ZBEK TILI QARINDOSHLIK ATAMALARI

Yulduz Karshibayeva

GulDU mustaqil tadqiqotchi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.13774187>

Annotatsiya. Mazkur maqolada o'zbek tilida qarindosh-urug'likni ifodalovchi leksemalar xususida fikr yuritiladi. Qarindosh-urug'likni ifodalovchi leksemalarning paydo bo'lishi, guruhlanishi va paradigmasi ashyoviy dalillar bilan asoslangan. Qarindoshlikni ifodalovchi leksemalar genderalogik tahlilga tortilgan. Qarindosh va qarindosh-urug'likni ifodalovchi atamalar maqolaning illyustirativ materiali sifatida xizmat qilgan.

Kalit so'zlar: oila, nikoh, ota, ona, bobo, buvi, aka, uka, opa, singil, qarindosh, urug', qavm-qarindoshlik va b.

KINSHIP TERMS OF THE UZBEK LANGUAGE

Abstract. This article discusses lexemes expressing kinship in the Uzbek language. The emergence, grouping and paradigm of lexemes representing kinship are supported by physical evidence. Lexemes representing kinship are subjected to gender analysis. The terms representing relatives and relatives served as illustrative material of the article.

Key words: family, marriage, father, mother, grandfather, grandmother, brother, sister, sister, relative, clan, kinship, etc.

ТЕРМИНЫ РОДСТВА УЗБЕКСКОГО ЯЗЫКА

Аннотация. В данной статье рассматриваются лексемы, обозначающие родство в узбекском языке. Появление, группировка и парадигма лексем, обозначающих родство, подтверждаются вещественными доказательствами. Лексемы, обозначающие родство, подвергаются гендерному анализу. Иллюстративным материалом статьи послужили термины, обозначающие родственников и родственников.

Ключевые слова: семья, брак, отец, мать, дедушка, бабушка, брат, сестра, сестра, родственник, род, родство и др.

Bugungi kunda xalqaro maydonda obro'-e'tibori tobora yuksalib borayotgan Yangi O'zbekistonimizni dunyoga tarannum etishda ona tilimiz ham munosib hissa qo'shmaqdida.

O'zbek tilshunosligida milliy tilning paydo bo'lishi, shakllanishi, rivojlanish bosqichlari turli aspektlarda o'r ganilgan. Juhon tilshunosligida tillardagi kategoriylar, jumladan, jins kategoriysi ifodasiga bo'lган qiziqish hech qachon so'nmagan. So'nggi paytlarda jins tushunchasini qamrab oluvchi gender tadqiqotlar ko'payib bormoqda. Ayol va erkaklar nutqidagi

farqlar, paremiologik fondda ayol va erkak manzarasi kabi muammolar qiyosiy aspektida o‘rganilmoqda. Bu holat jins va gender kategoriyalarining farqi, tilda jins tushunchasining ifodalanishi va jins tushunchasini ifodalashda faol bo‘lgan lisoniy vositalarni qarindosh-urug‘likni ifodalovchi leksemalari misolida o‘rganish muhim ahamiyat kasb etadi.

Jahon tilshunosligida jinsn ifodalovchi so‘zlardagi integral va differentials semalarini aniqlash, insondagi ijtimoiy va biologik jins o‘rtasidagi munosabatni belgilash, turli tizimli tillar misolida biologik jins tushunchasining ifodalanishini yoritish hamda jins tushunchasining lsoniy ifodasida milliy qadriyat, xalq madaniyatining rolini asoslashga katta e’tibor qaratilmoqda. Shu nuqtai nazardan ayni masalalarni milliy tillar misolida ko‘rib chiqish bugungi tilshunoslikning dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi. O‘zbek tilshunosligida qavm-qarindoshlikni, qarindosh urug‘likni ifodalovchi leksemalar Sh.Shoabdurahmonov [6, 29-30], S.Mutallibov [2, 140], B.O‘rinboyev [5, 25], I.Ismoilov [1, 156], B.To‘ychiboyev [7, 87-90], F.Musayeva [3, 24] ishlarida o‘rganilgan.

O‘zbek tilshunosligida bu masala to‘g‘risida ko‘plab ma’lumotlar beriladi. Lekin qavm-qarindoshlikni anglatuvchi *ota, ona, bola, o‘g‘il, qiz, nabira* kabi qon-qarindoshlik atamalarigina leksikologiya tarixi bilan bog‘lab tekshiriladi va misol tariqasida ko‘rsatib o‘tiladi [2, 140], yoki o‘zbek tili va uning shevalaridagi qavm-qarindoshlik atamalarini tekshirish, jiddiy ilmiy ish olib borish kerakligi, uning tilshunoslikdagi ahamiyati to‘g‘risida to‘xtab o‘tiladi [6, 30].

O‘zbek tilshunosligida keyingi vaqtarda yaratilgan ilmiy ishlardan biri B.O‘rinboyevning qavm-qarindoshlik atamalarining bir tomonlama xususiyatini, ya’ni undov, murojaat anglatuvchi so‘zlar qatoridagi formasinigina tekshirishga bag‘ishlangan asaridir [5, 25]. Albatta, bu ham o‘zbek tilidagi qarindoshlik terminlari uchun material beradi. O‘zbek tili tarixiga oid 1913-yilda chiqqan “Birinchi muallim” kitobining 23-24-betlarida qarindoshlarning umumiyligi ro‘yxati berilgan.

Bir avlod-ajdodga mansub bo‘lgan kishilarning biri boshqasiga nisbatan *qarindosh* bo‘ladi. Masalan, *ota tomondan qarindosh, ona tomondan qarindosh, yaqin qarindosh, uzoq qarindosh, chatishgan qarindosh*. Bir ota-ona farzandlari, aka-uka, opa-singillar.

Qarindoshlarning o‘zaro munosabatlari, bordi-keldi aloqalari qarindoshchilik bo‘ladi.

Qarindosh-urug‘ esa uzoq-yaqin qarindoshlar, xesh-aqrabolar [8, 555], urug‘larga nisbatan qo‘llanadi.

Yuqoridagilardan ma’lum bo‘lmoqdaki, bir ota-onadan tarqagan avlodga nisbatan qarindosh so‘zi qo‘llanmoqda. *Qarindosh* so‘zi yasama so‘z bo‘lib, qarin (qorin) – asos, -dosh yasovchi affiks munosabatidan yasalganligi aniq.

Qarindoshchilikning dastlabki bosqichi oiladagi munosabatlardan boshlanadi. Ya’ni ota va

ona bu munosabatlarning yuzaga keltiradi. Dastlab, ota va ona o‘rtasida qarindoshlik rishtalarining o‘zi yo‘q. Bo‘lishi ham maqsadga muvofiq emas. Ana shu ikki bir-biriga zid hamda begona jins o‘rtasida farzanlar dunyoga keladi. Shundan qarindoshlik boshlanadi.

Qarindoshlikning ilk bosqichi oiladan boshlanadi. Oilada qarindoshlik aka-uka, opa-singil o‘rtasida boshlanadi va bu paradigmni boshlab beradi. Ota-onaga nisbatan aka-uka, opa-singillar farzand maqomida, ularning farzandlari esa *nabira* maqomida, nabiralarning farzandlari *evara* maqomida va hakoza davom etib ketaveradi. Mana shu munosabatdoshlikdan *bobo*, *buvi*, *ota*, *ona*, *amma*, *xola*, *amaki*, *tog‘a* va boshqalar davom etib ketaveradi. *Oila* qarindoshlikning yadrosi hisoblanadi. O‘zbek tilida barcha qarindoshlikni ifodalovchi leksemalar ushbu *oila* tushunchasiga nisbatan olinadi.

Oila leksemasiga izohli lug‘atlarda shunday ta’rif berilgan. Er-xotin, ularning bola-chaqlari va eng yaqin tug‘ishganlaridan iborat birga yashovchi kishilar majmui; xonodon. Ahil oila. San’atkorlar oilasi. *Oila* boshlig‘I [9, 526]. Oiladagi qarindoshlar ijtimoiyligidan kelib chiqib, ayol va erkak qarindoshlarga ajratiladi.

Ma’lumki, har qanday terminlar, shu jumladan, qavm-qarindoshlik terminlari ham qanchalik turg‘un bo‘lmisin, zamon o‘tishi, jamiyatning o‘zgarishi, *oila*, nikohning yangi shakllari va ular o‘rtasidagi munosabatlarning o‘zgarishi bilan ishlatalib kelinayotgan qavm-qarindoshlik atamalarining ma’no doirasi ham kengayadi, yangi turlari paydo bo‘ladi.

O‘zbek tilidagi qavm-qarindoshlik atamalari birdan paydo bo‘lgan emas, albatta. U o‘ziga xos tarixiy bosqichlarni bosib o‘tib, hozirgi ahvoliga kelgan. Hozirgi tilda qo‘llanilayotgan har bir atama paydo bo‘lgan vaqtin jihatidan ham, turli funksiyalarda qo‘llanilishi va har xil o‘zgarish hamda yangiliklarni qabul qilish jihatidan ham o‘ziga xos tarixga egadir [1, 10]. O‘zbek tilidagi qavm-qarindoshlik leksemalari hozirgi holga kelguncha ko‘p davrlarni va turli bosqichlarni boshidan kechirdi. Zamonlarning o‘tishi, o‘zbek xalqi hayotida yuz bergen iqtisodiy, siyosiy va madaniy o‘zgarishlar bu tilning lug‘at tarkibini ham o‘zgartirdi, ko‘pgina qavm-qarindoshlik terminlari eskirib, iste’moldan chiqdi, bir turkum terminlarning ma’no doiralari kengaydi va o‘zgarishlarga uchradi. Ma’lumki, o‘zbek xalqi o‘zining tarixiy taraqqiyoti jarayonida turli sistemadagi tillarda gapiruvchi ko‘pgina xalqlar bilan birga hayot kechirdi, aralashdi. Shuning natijasida o‘zbek tili murakkab sharoitda shakllandı va uning lug‘at tarkibi, shu jumladan, qavm-qarindoshlik leksemalari ham boshqa tillarning leksik elementlarini – terminlarini o‘z ichiga olgan holda rivojlandi. Ammo bunga qaramasdan, o‘zbek tilining asosiy qavm-qarindoshlik atamalari saqlanib qoldi va ma’no doirasini kengaytirdi.

Hozirgi zamon o‘zbek tilidagi qavm-qarindoshlik atamalari o‘zlarining kelib chiqishi va ma’nosiga ko‘ra asosan uchta katta guruhga bo‘linadi:

1. Qon-qarindoshlik atamalari.
2. Nikohdan keyin paydo bo‘lgan qarindoshlik atamalari.
3. Yaqinlik nomlari.

Qon-qarindoshlik atamalariga o‘zbek tilida *ona, ota, aka, tog‘a, xola, buva (bobo), buvi, amma, nabira* kabi ma’nolarni ifodalovchi leksemalar kiradi.

Nikohdan keyin paydo bo‘lgan qarindoshlik leksemalarini *er, xotin, kuyov, kelin, pochcha, boja, ovsin, qayin ona, qayin ota, quda, quda xola, quda buva; o‘gay ota, o‘gay ona, o‘gay bola* singari leksemalar tashkil etadi.

Yaqinlik nomlari deb atalgan bu gruppera asosan o‘zbek tiliga xos bo‘lib, bu leksemalarga yuqoridagi ikki guruh atamalaridan butunlay farq qiladi, ya’ni bu tutingan so‘zi bilan – *tutingan ota (+m); tutingan ona (+m); tutingan o‘g‘li (+m)* singari ifodalangan atamalar kiradi.

Keltirilgan misollarning birinchi guruhi o‘z navbatida o‘z guruhidagi atamalar bilan birga – *ota-ona, ota-bobo, tog‘a-jiyan, opa-singil, aka-uka, amma-xola* kabi shakllarda juftlashib, ko‘plik va jamlash ma’nolarini ifoda qiladi. Shuningdek, boshqa so‘z turkumlari bilan – *katta buvi, o‘gay ona, qayin ota* singari yangi qavm-qarindoshlik atamalari va har xil affikslar olib otalik, enaga kabi yangi ma’noli so‘zlarining yasalishida asosiy manba bo‘la oladi.

O‘zbek tilidagi qavm-qarindoshlik terminlarini ifodalananishiga ko‘ra ikkiga bo‘lish mumkin:

Oddiy (tub) so‘z bilan ifodalangan terminlar – *ona, bola, qiz, aka, opa, jiyan, tog‘a, nevara, bobo, buvi* va b.

Qo‘shma so‘z bilan ifodalangan terminlar – *ammavachcha, qayin ona, qayin egachi, katta buva; o‘gay ona, o‘gay o‘g‘il, quda xola* singari terminlarni kiritish mumkin.

Bu yerda ishlatilgan qavm-qarindoshlik va qon-qarindoshlik terminlari deb atalgan ibora ustida tubandagi tushuntirishni eslatib o‘tamiz. Qavm-qarindoshlik deganda yuqorida keltirilgan uch gruppera terminlarni tushunish zarur. Qon-qarindoshlik deganda esa bir ota va bir onadan tarqagan qarindoshlar tushunilishi kerak bo‘ladi.

Kishilik jamiyati bor ekan ular o‘rtasida turli xil ijtimoiy munosabatlar bo‘lishi tabiiy.

Jumladan, qarindosh-urug‘likni anglatuvchi tushuncha va atamalar. Oila atamasi bu tushunchaning yadrosi hisoblanadi. Barcha qarindosh-urug‘likni anglatuvchi tushuncha va atamalar oila leksemasi semantik maydonida hosil bo‘ladi.

Qon-qarindoshlikni nomlovchi leksemalar barchasi yuqorida keltirilgan misollar kabi tahlilga tortilishi, har tomonlama chuqur tahlil etilgandagina ilmiy qimmatga ega bo‘ladi.

O‘zbek tilida qon-qarindoshlik terminlari ana shunday jiddiy tadqiqotlarga muhtoj.

REFERENCES

1. ИСМОИЛОВ И. ТУРКИЙ ТИЛЛАРДА ҚАВМ-ҚАРИНДОШЛИК ТЕРМИНЛАРИ. (ЎЗБЕК, УЙГУР, ҚОЗОҚ, ҚИРГИЗ, ҚОРАҚАЛПОҚ, ТУРКМАН ТИЛЛАРИ МАТЕРИАЛЛАРИ АСОСИДА). – ТОШКЕНТ, ФАН, 1966. – 156 Б.
2. МУТАЛЛИБОВ С., МОРФОЛОГИЯ ВА ЛЕКСИКА ТАРИХИДАИ ҚИСҚАЧА ОЧЕРК. – ТОШКЕНТ, 1959. – 140-БЕТ.
3. МУСАЕВА Ф. ЎЗБЕК ТИЛИДА ЖИНС ТУШУНЧАСИНИНГ ИФОДАЛАНИШИ. ФИЛ. ФАН. БҮЙИЧА ФАЛСАФА ДОК-РИ ДИСС.... АВТОРЕФ. – ТОШКЕНТ, 2019. – 24 Б.
4. МУТАЛЛИБОВ С., МОРФОЛОГИЯ ВА ЛЕКСИКА ТАРИХИДАИ ҚИСҚАЧА ОЧЕРК. – ТОШКЕНТ, 1959. – 140-БЕТ.
5. УРИНБАЕВ Б. КАТЕГОРИЯ ВОКАТИВНОСТИ В СОВРЕМЕННОМ УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКЕ. АВТОРЕФЕРАТ КАНД. ДИСС..... – САМАРКАНД, 1964.
6. ШОАБДУРАҲМОНОВ Ш. ЎЗБЕК ШЕВАЛАРИНИНГ ЛЕКСИК СОСТАВИНИ ЎРГАНИШ МАСАЛАЛАРИ ҲАҚИДА. “ЎЗБЕК ТИЛИ ВА АДАБИЁТИ МАСАЛАЛАРИ”. №2, 1958. 29-30-БЕТЛАР.
7. ТҮЙЧИБОЕВ Б. ХАЛҚ ТИЛИДА ЖИНС ТУШУНЧАСИНИНГ ИФОДАЛАНИШИ // ЎЗБЕК ТИЛИ ВА АДАБИЁТИ. – ТОШКЕНТ, 2013. –№ 1. – Б. 87-90.
8. ЎЗБЕК ТИЛИНИНГ ИЗОҲЛИ ЛУҒАТИ. ИККИ ТОМЛИ. II ТОМ. – МОСКВА, РУС ТИЛИ НАШРИЁТИ, 1981. – Б 555.
9. ЎЗБЕК ТИЛИНИНГ ИЗОҲЛИ ЛУҒАТИ. ИККИ ТОМЛИ. I ТОМ. – МОСКВА, РУС ТИЛИ НАШРИЁТИ, 1981. – Б 526.